

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLIKOV SARVAR XAYITBAYEVICH

**YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI
IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Xolikov Sarvar Xayitbayevich

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirish
yo‘llari.....3

Холиков Сарвар Хайитбаевич

Пути повышения эффективности экономики за счет финансирования зеленой
экономики31

Kholikov Sarvar Khaitbaevich

Ways to increase economic efficiency through financing the green economy61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....67

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLIKOV SARVAR XAYITBAYEVICH

**YASHIL IQTISODIYOTNI MOLİYALASHTIRISH ORQALI
IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4156 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tkti.uz) va «ZiyoNet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Asatullayev Xurshid Sunatullayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Jumayev Nodir Xosiyatovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Umurzakov Jamoliddin Sherbekovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Etakchi tashkilot: **G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti**
Toshkent fililali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.I.42.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Samarqand darvoza ko‘chasi 60-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (info@tkti.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri A.Navoiy ko‘chasi, 32-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (info@tkti.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil “___” _____dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

D.N.Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.J.Xo‘jamurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Sh.A.Xusainov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon okeanlarida joylashgan yoki ular tomonidan quvvatlanadigan qayta tiklanadigan energiya tizimlari kelgusi o'n yilliklarda yashil energiyaga o'tishga katta hissa qo'shishi aytilmoqda. Dengizdagi shamol va uning qayta tiklanadigan energetika sektori ta'sirchanligi 31 foizni, global qo'shilgan qiymat 2000 yildagi 38 million AQSh dollaridan 2020 yilda 5 milliard AQSh dollariga ko'tarilganligi¹ hamda global ofshor shamol bozori 2024 yilda 39,6 milliard AQSh dollaridan ortiq baholanganligi va 2031 yilga borib 146 milliard AQSh dollaridan oshib ketishi prognoz qilinmoqda². Butun dunyo mamlakatlari 2050 yilga kelib yiliga 1,5 milliard uyni quvvat bilan ta'minlaydigan ofshor shamol energetika tizimlarini joriy etish majburiyatini olmoqda³. Shu sababdan jahon iqtisodiyotidagi energetika inqirozi, geosiyosiy beqarorlik, real atrof-muhitning buzilishi va tabiiy resurslarning muntazam ravishda kamayishi so'nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu o'z nabatida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali mamlakatlar iqtisodiyoti samaradorligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon amaliyotda nufuzli moliya muassasalari hisoblangan Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, BMTning Taraqqiyot dasturlari kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning yashil investitsiyalarga bo'lgan talablarini rag'batlantirish, yashil investitsiyalar resurs bazasini kengaytirish, yashil moliyalashtirish manbalarini yaratish natijasida yashil investitsiyalar hajmini ko'paytirish va shu orqali rivojlantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro standartlarda belgilangan talablar asosida istiqbolda davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishda yashil investitsiyalar manbalarini shakllantirish hamda uni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini bermoqda. Ammo, istiqbolda tejamkorlikka yo'naltirilgan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmining nazariy jihatlari, yashil moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish va baholash uslubiyoti, yashil moliyalashtirish orqali iqtisodiyotda energiya tejamkorligiga asoslangan mahsulot ishlab chiqarish va xudud ekologiyasiga ta'sir qilmaydigan muhit sharoitini yaratish, yashil iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan investitsiya siyosati, yashil moliyalashtirish samaradorligini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar hamda baholash mexanizmini takomillashtirish yo'llari bilan bog'liq muammolar hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan hamda o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kirmoqda.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida "iqtisodiyot tarmoqlarida «yashil» texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish,

¹ OECD, The Ocean Economy to 2050.

² www.verifiedmarketresearch.com/product/global-offshore-wind-market-size-and-forecast/.

³ www.wri.org/insights/ocean-based-climate-change-solutions.

chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish"⁴ va bu sohada "yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish"⁵ masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo, yashil iqtisodiyotni shakllantirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda ijobiy natijalarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, mavjud yashil investitsiya loyihalaridan iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kiritilayotgan loyihalardan samarali foydalanish borasida turli xil darajadagi manbalarning yetib borishi jarayoni, moliyalashtirishdagi muammolar sababli iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababli iqtisodiyot tarmoq va sohalariga yashil investitsiyalarni faol jalb qilish hamda yangi yashil investitsiya loyihalari manbalarini shakllantirish hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifalari hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2025 yil 30 maydagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 sentabrdagi "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrdagi PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-son "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlani-shining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6303230>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son farmoni.

yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiyotni barpo etish, uni moliyalashtirish mexanizmlari jahon fanida yangi bir holatlardan biridir. Jahon hamjamiyati tomonidan hozirgi kunda keng muhokama qilinayotgan yashil iqtisodiyot haqida dastlab D.V.Pirs, A.Markandiya va E.Barbierlar tomonidan 1989 yilda ekologik xarakterdagi “Yashil iqtisodiyotni yaratish loyihasi” nomli tadqiqot ishida ko‘rsatilgan⁶.

Zamonaviy jahon amaliyotida yashil transformatsion jarayonlar, yashil investitsiyalar va mamlakatlarni yashillashtirish bo‘yicha islohotlarni o‘tkazish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Boven, S.Smolders, E.P.Mishel, K.Beli va R.Konstanzalar tomonidan o‘rganilgan⁷. Shuningdek, MDH iqtisodchi olimlaridan P.I.Tolmachev, A.G.Glebov, M.L.Dorofeev, B.B.Rubsov va N.Ye.Annenskayalar yashil iqtisodiyotni moliyaviy jihatlariga alohida e‘tibor qaratishgan⁸.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarining nazariy va amaliy muammolari bo‘yicha S.N.Silvestrov, A.F.Mudresov, Ye.V.Balasskiy, I.V.Kononovich, I.N. Makarov va boshqalar tomonidan alohida e‘tibor qaratilgan xolos⁹.

Mazkur iqtisodchi olimlar tomonidan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, yashil transformatsion jarayonlar, yashil investitsiyalar va mamlakatlarni yashillashtirish bo‘yicha islohotlarni o‘tkazish dastak va vositalari, o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan bo‘lsa-da, aynan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan

⁶ Pearce, D.W. *Blueprint for a Green Economy*. London / D.W. Pearce, A. Markandya, E. Barbier. – London : Earthscan Publications Ltd, 1989. – 192 p. – ISBN 1853830666.

⁷ Biely, K. *The United Nations Environment Programme’s Green Economy Initiative: Shifting the Concept with the Global Financial Crisis of 2008* / K. Biely // University of Leeds : [сайт]. – Текст : электронный. – URL: https://conferences.leeds.ac.uk/eesec2015/wp_content/uploads/sites/57/2015/10/0353.pdf; Costanza, R. *Ecological economics: The science and management of sustainability* / R. Costanza. – New York : Columbia University Press, 1991. – P. 3. – 525 p. – ISBN 9780231075633.

⁸ Кононович, И.В. Анализ внедрения зеленой экономики в странах с формирующимся рынком / И.В. Кононович // Финансовая экономика. – 2024. – № 5 (3). – С. 226-231. – ISSN 2075-7786.; Толмачев, П.И. Климатическая повестка современных международных экономических отношений в контексте глобальной неопределенности / П.И. Толмачев // Вопросы новой экономики. – 2022. – № 1 (61). – С. 4-13. – ISSN 1994-0556.; Рубцов, Б.Б. «Зеленые» облигации – особый инструмент в создании дорожной карты «зеленых» финансов: мнение экспертов Финансового университета / Б.Б. Рубцов, Н.Е. Анненская // Банковские услуги. – 2019. – № 11. – С. 2-9. – ISSN 2075-1915. – Текст : электронный. – URL: <http://elib.fa.ru/art2019/bv3108.pdf>;

⁹ Сильвестров, С.Н. Устойчивое развитие и «зеленая» модернизация как условие перехода к новой промышленной революции / С.Н. Сильвестров, Ю.В. Зинченко // Мир новой экономики. – 2017. – № 3. – С. 6-13.; Мудрецов, А.Ф. Социально-экономическое развитие России / А.Ф. Мудрецов, А.С. Тулупов, А.А. Прудникова // Региональные проблемы преобразования экономики. – 2017. – № 8 (82). – С. 4-11.; Балацкий, Е.В. Концепция инклюзивных институтов и ее приложения / Е.В. Балацкий // Общественные науки и современность. – 2017. – № 2. – С. 143-156.; Кононович, И.В. Индексная оценка зеленой экономики на основе системы показателей ОЭСР / И.В. Кононович // Финансовая экономика. — 2022. – № 12 (3). – С. 224-226.; Макаров, И.Н. Зеленая экономика, цифровые технологии и нано-инструментарий: основные базисы трансформации производственных систем в Евразийском экономическом союзе / И.Н. Макаров, Е.В. Дробот, 161 О.Н. Левчев // Экономические отношения. – 2020. – № 3. – С. 719-742.

S.Gulyamov, M.Muxitdinova, T.Iminov, A.Vahobov, T.Teshaboyev, M.Bo'taboyev, S.Turayeva, E.Muminova, R.Djurayeva., G.Sultanova va boshqalar tomonidan ham o'ziga mos tarzda amalga oshirilgan.¹⁰ Yuqorida qayd qilingan xorij va mamlakatimiz ilmiy nashrlarida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning ayrim nazariy qirralari, ahamiyati, xususiyatlari, turlari va boshqa jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan xolos. Bu, o'z o'rnida, jahon iqtisodiyotida shiddat bilan ro'y berayotgan globalizatsiya jarayonlari va dunyodagi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, global iqlim sharoitining tarkiban o'zgarishi kabi salbiy holatlar ta'sirida hududlar iqtisodiy faolligini mazkur sohada chuqur ilmiy ishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Yuqorida keltirilgan ko'p sonli ilmiy nashrlarga qaramay, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va uni moliyalashtirish mavzusi ancha dolzarb muhokama mavzusi bo'lib qolmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyot, yashil rivojlanish va yashil inklyuzivligini tahlil qilish metodologiyasi davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda joriy etish ham to'laqonli o'rganilmagan. Mazkur keltirilgan holatlar dissertatsiya ishida tadqiq etilgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasining ilmiy saviyasini yanada keskin oshiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy jihatlarini takomil-lashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

yashil iqtisodiyot va uning mazmuniga bo'lgan nazariy qarashlar evolyusiyasi dastlabki davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan talqinlari o'rganish;

iqtisodiyot sohalari samaradorligini oshirishda yashil moliyalashtirishning o'rniga bo'lgan yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berish;

iqtisodiyot sohalari samaradorligini oshirishda yashil moliyalashtirish ekotizmining o'rnini asoslab berish;

O'zbekistonda iqtisodiyot sohasiga kiritilgan yashil investitsiyalarning hozirgi kundagi amaliy taxlillarini amalga oshirish;

iqtisodiyot sohasini davlat-xususiy sherikchiligi asosida "yashil" loyihalarni moliyalashtirish taxlilini amalga oshirish;

iqtisodiyot tarmoq sohasidan energetika tarmog'iga jalb qilingan investitsiyalar samaradorligining ekonometrik modeli dasturiy ta'minot orqali

¹⁰ Gulyamov S.S., Muxitdinova M.X. Yashil iqtisodiyotni samaradorligini oshirishda sun'iy intellektni roli. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0093/93_i_20250510_111311_1.3.pdf. Иминов Т.К., Вахобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019).; «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития Монография. Т: «Алоқачи», 480 б.; С.Тураева., Р.Джураева., Г.Султанова Концепция «зеленой экономики»: глобальные тенденции и национальные особенности. <https://international-affairs.uz/storage/01JV PANP2C94QDFAFGHQF02XG.pdf>; Э.А.Муминова Яшил иктисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида. file:///C:/Users/user/Downloads/yashil-i-tisodiyot-bar-aror-rivozhlanish-mehanizmi-sifatida%20(3).pdf.

amalga oshirish;

milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning xorij tajribasi o'rganilgan va uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etish;

iqtisodiyot tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish samaradorligini oshirish istiqbol yo'nalishlari aniqlash;

iqtisodiyotning energetika sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha tegishli xulosa va takliflar shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan yashil investitsiyalar, loyihalar va xukumat tomonidan amalga oshirilayotgan yashil islohotlar amaliyoti olingan.

Tadqiqotning predmeti yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy jihatlarini takomil-lashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

moliya bozorini tartibga solishda ESG tamoyillarini joriy etish hamda "yashil kreditlar" va yashil obligatsiyalarni jalb qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish ekologik samaradorlikni oshirish bilan birga energetika sohasidagi ishlab chiqarish hajmini 15 foizga ko'paytirishga olib kelishi asoslab berilgan;

"Yashil" obligatsiyalar, kreditlar va boshqa muqobil manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ekologik loyihalarni Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi orqali tasniflash tajribasini joriy etish taklif etilgan;

davlat moliyaviy ko'magidan foydalangan barcha tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy xarajatlarini Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi asosida tasniflash hamda mas'ul respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish tartibini joriy etish taklif etilgan;

iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashda imtiyozli "yashil" kreditlar, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini joriy etish, xalqaro iqlim fondlari (GCF, GEF) va institutsional investorlar mablag'larini jalb qilish, kafolat instrumentlari orqali rag'batlantirish tizimini shakllantirish taklifi berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotda yangi elektr stansiyalarining ishga tushirilishi natijasida yashil energiya va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarga sarmoya kiritilishiga hamda sanoat va aholi xonadonlarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar joriy etilishiga olib keladi;

davlat va xususiy sektorlarida ekologik samaradorlikni o'lchash va tartibga solishda ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, ekologik siyosat samaradorligini oshirishga

hamda istiqbolda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi;

yangi binolar va infratuzilmalarda energiya samaradorligini oshirish uchun zamonaviy tizimlar va materiallar qo'llanilishi oqibatida umumiy energiya sarfi 12-15 foizga kamayishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarning ijobiy hal bo'lishiga erishiladi;

ESG tamoyillari asosida yashil obligatsiyalar chiqarish va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar natijasida qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirilishi ekologik samaradorlik va energetika sohasidagi ishlab chiqarish salomog'ining oshishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar rasmiy manbalardan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi kabi tashkilotlarning ochiq ma'lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish, fundamental va amaliy jihatlarini o'rganish hamda rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa dissertatsiya ishining asosiy g'oya va materiallaridan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan hukumat chora-tadbirlari tizimini kuchaytirish dasturlarini, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy jihatlarini bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

“moliya bozorini tartibga solishda ESG tamoyillarini joriy etish hamda “yashil kreditlar” va yashil obligatsiyalarni jalb qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish ekologik samaradorlikni oshirish bilan birga energetika sohasidagi ishlab chiqarish hajmini ham ko'paytirishga olib kelishiga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston-2030” strategiyasining “Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” to'g'risidagi 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonining 2-ilovasi “O'zbekiston-2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha 2024 yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi” 51-maqсадa o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 35-7-3163-son ma'lumotnomasi). Natijada, ESG tamoyillari asosida yashil obligatsiyalar chiqarish va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish

orqali ekologik samaradorlik va energetika sohasidagi ishlab chiqarishni 15 foizga oshishiga olib kelishi belgilangan;

“Yashil” obligatsiyalar, kreditlar va boshqa muqobil manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ekologik loyihalarni Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi orqali tasniflash tajribasini joriy etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2023-yil 25-oktabrdagi 561-sonli Qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 35-7-3163-son ma‘lumotnomasi). Natijada, milliy iqtisodiyotda ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi muvozanat ta‘minlanganb iqtisodiyotda yangi elektr stansiyalari ishga tushirilib, ularning ulushi mamlakat elektr energiyasining 12-15 foizini tashkil qilgan, yashil energiya va qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga 1,2 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritilishi, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida chiqindilardan energiya ishlab chiqarish tizimlari joriy qilinishi va bu umumiy energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini 3 foizga oshirishga olib kelishi kutilmoqda;

davlat moliyaviy ko‘magidan foydalangan barcha tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy xarajatlarini Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi asosida tasniflash hamda mas‘ul respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga tegishli ma‘lumotlarni taqdim etish tartibini joriy etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son Qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 35-7-3163-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniq va shaffof ma‘lumotlar yig‘iladi, hamda ma‘lumotlar bazasining shakllantirilishi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, ekologik siyosatlarining samaradorligini oshirishga va istiqbolda iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi;

iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda imtiyozli “yashil” kreditlar, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini joriy etish, xalqaro iqlim fondlari (GCF, GEF) va institutsional investorlar mablag‘larini jalb qilish, kafolat instrumentlari orqali rag‘batlantirish tizimini shakllantirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish” 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son Farmonida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 35-7-3163-son ma‘lumotnomasi). Natijada, shamol energiyasidan foydalanish bilan ishlab chiqarilgan energiya miqdori 2,5 milliard kVt/s ga yetkazilib, yangi energiya samaradorligiga ega texnologiyalar, qurilish standartlari va uskunalari joriy qilish, hamda yangi binolar va infratuzilmalarda energiya samaradorligini oshirish uchun zamonaviy tizimlar va materiallar qo‘llanilishi oqibatida umumiy energiya sarfi 12-15 foizga kamayishiga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 1 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “Iqtisodiyot samaradorligini oshirishda “Yashil” moliyalashtirish mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlanib, mazkur bobda yashil iqtisodiyot va uning mazmuniga bo‘lgan nazariy qarashlar evolyusiyasi, iqtisodiyot tarmoq va sohalari samaradorligini oshirishda yashil moliyalashtirishning o‘rni, iqtisodiyot tarmoq va sohalari samaradorligini oshirishda yashil moliyalashtirish ekotizmining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Tarixiy rivojlanish bosqichiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, «yashil» iqtisodiyot – bu XX asr oxirida yuzaga kelgan iqtisodiyot fanining yo‘nalishi bo‘lib, u iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish zarurligini nazarda tutadi. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisod fanining ekologiya iqtisodiyoti va atrof-muhit iqtisodiyoti kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda yaratilishi va iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989 yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish rejasi”, deb nomlangan hisobotda foydalanilgan¹¹. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar 1972 yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan konferensiyada ko‘rib chiqilgan edi. Kojevnikova va Terakopovlar¹² “Yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanishning yo‘nalishlaridan biri”

¹¹ Beder, S. (2011), 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150. SPASH2011.

¹² Кожевникова Т.М., Теракопов С.Г. (2013) «Зеленая экономика» как одно из направлений устойчивого развития». Социально-экономические явления и процессы. № 3 (049)

nomli asarida iqtisodiyotda faoliyatini ekologiyaga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishga o‘tish zarurati paydo bo‘lganini asoslaydi. Bunda “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy adolatning muhim va hozirgi zamondagi yetakchi asosi sifatida qaraladi. Shodimetov va Ayrapetovlar “Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga yo‘l” nomli maqolasida¹³ zamonaiy jamiyatlarda yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni ta‘minlashda ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik tomonlari tadqiq qilingan. Rivojlangan davlatlar va Shanxay hamkorligi davlatlari tajribasi o‘rganilgan va uning O‘zbekiston uchun foydalai tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan. V.Vaykning “Yashil iqtisodiyot” va barqaror rivojlanish¹⁴ asarida so‘nggi yilda jahon amaliyotida barqaror rivojlani borasida sezilarli natijalar qo‘lga kiritilgani, barqaror rivojlanishda asosan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy tomonga urug‘u berilayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda “yashil iqtisodiyot” jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida resurstejamkor va atrof-muhitga kam salbiy ta‘sirli yo‘nalish sifatida tadqiq qilingan. Voymik va Husayin Shohning “Yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish omili sifatida” nomli asarida Bangladesh Respublikasi misolida “yashil iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari hududlarida barqaror rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirishda muhim yo‘nalish bo‘layotganligi ko‘rsatib o‘tilgan¹⁵.

1-jadval

Ekologik muammolarni o‘rganishga qaratilgan yashil nazariyalarning muhim jihatlari¹⁶

Yashil nazariyaning nomlanishi	Asosiy vakillari	Nazariy yondashuvning muhim jihati
Ekologiya iqtisodiyoti	Kostanza R. (1991 y..)	Ekologiya iqtisodiyoti keng miqyosda ekotizim va iqtisodiy tizim o‘rtasidagi tadqiqotlar sohasi bo‘lib hisoblanadi. An’anaviy ekologik (yashil) tavsifdagi iqtisodiyot boshqa qator fanlarni masalan ekologiya, antropologiya, ijtimoiy farovonlik va boshqalarni o‘zida mujassamlashtiradi.
Iqtisodiyotni past uglerodli rivojlanishi	1990 yilda iqlim o‘zgarishlarini baholash bo‘yicha MDITQning birinchi ma‘ruzasi	Iqlim o‘zgarishi inson faoliyati tufayli atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi bilan bog‘liq. BMT Bosh Assambleyasi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muhim voqea bo‘lgan BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasini qabul qildi. Bu ekologik huquq sohasidagi eng muhim yutuqlardan biridir. Kam uglerodli rivojlanishga faqat ajralish orqali

¹³ Шадиметов.Ю., Айрапетов Д. (2022) “Зеленая экономика» путь к устойчивому развитию”. Транспортда ресурстежамкор технологиялар. Халқаро илмий-техникавий анжуман материаллари тўплами. ТДТУ. – Т.:


¹⁴ V.Weick. Green Economy and sustainable development. https://ideas.repec.org/h/elg/eechap/15726_6.html.

¹⁵ Liton Chandra Voumik. Md Gaffar Hossain Shah. (2014) A green Economy in the Context of Sustainable Development and Poverty Eradication: What are the Implications for Bangladesh? Journal of Economics and Sustainable Development. www.iiste.org ISSN 2222-1700 (Paper) ISSN 2222-2855 (Online) Vol.5, No.3, –P. 117-131

¹⁶ Boulding, Kenneth E. The economics of the coming spaceship earth / Kenneth E. Boulding // Environmental Quality in a Growing Economy. – 1966. – P. 1-14.; George, H. Progress and Poverty: an inquiry into the cause of industrial depressions and of increase of want with increase of wealth: the remedy / H. George. – London : William Reeves, 1884. – P. 63-67. – 440 p.; Costanza, R. Ecological economics: The science and management of sustainability / R. Costanza. – New York : Columbia University Press, 1991. – P. 3. – 525 p.; Декларация по окружающей среде и развитию, Рио-Де Жанейро, 1992 год / ООН : официальный сайт. – Текст : электронный. – URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/riodecl.shtml.


		erishish mumkin iqtisodiy o'sish, uglerod chiqindilari va Kuznes egri chizig'i (S. Kuznes) ¹⁷ Kuznes egri chizig'i iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit sifati o'rtasidagi bog'liqlikdir. Iqtisodiy o'sish ma'lum bir nuqtaga qadar atrof-muhitning buzilishiga yordam beradi, bu nuqta ma'lum bir o'rtacha mamlakatning daromadi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot rivojlanib borar ekan, avvalo bozor munosabatlari kuchayadi, keyin esa pasayish va iqtisodiy tengsizlik yuzaga keladi.
Yashil o'sish iqtisodiyoti	Dastlab bu mazkur termin Seulda osiyo tinch xududida o'tkazilgan atrof-muhit ifloslanishi bo'yicha beshinchi idoralararo konferensiyada ishlatilgan.	Konferensiyada yashil o'sish yangilik sifatida belgilandi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydigan inqilobiy rivojlanish paradigmasi va iqlim va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. "Yashil o'sish siyosati iqtisodiy va ekologik bir-birini to'ldiruvchi tomonlarini aniqlashga qaratilgan yangi manbalar uchun imkoniyatlarni ochib beradigan tarzda qiyinchiliklar bilan erishadigan iqtisodiy o'sishdir". Yashil o'sish – bu iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ish o'rinlari yaratish strategiyasidir qashshoqlik, tabiiy resurslardan mahrum bo'lish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish. Yashil o'sish ham tabiiy kapitalga sarmoya kiritish strategiyasidir.
Ekologik omil mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun	Porter. M., Van der Klaas, 1995 y.	Ekologik omil xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Tadqiqotchilar atrof-muhitni tartibga solishni kuchaytirish kontekstida innovatsiyalarning ikkita shaklini aniqladilar: atrof-muhitga rioya qilishni kuchaytiruvchi innovatsiyalar va mahsulot sifati yoki ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilaydigan innovatsiyalar. Mahsulot sifati ko'rsatkichlariga utilizatsiya xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslar samaradorligini oshirish kiradi.
Bioiqtisodiyot	Landa T. (1999), Mohammadian M. (2003 y..)	Bioiqtisodiyot - bu biologiya iqtisodi intizomini kengaytirishga urinishdir. Uning ushbu amaliy va empirik intizom bilan integratsiyalashuvi iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko'proq bashorat qilish imkonini beradi. Bioiqtisodiyot ikki fanning integratsiyasi yoki "yaqinlashuvi" sifatida belgilanadi. Iqtisod va biologiya, ikkala fanni sezilarli darajada boyitish maqsadida ularning nazariy va empirik asoslarini kengaytirish, bu esa pirovardida yangi gipotezalar, teoremlar, nazariyalar va paradigmalarni qurishga yordam beradi. Iqtisodiyotda bioiqtisodiyot natijalari muhim ijtimoiy xarakterda bo'lishi mumkin.

¹⁷ Kuznets, S. Economic Growth and Income Inequality / S. Kuznets // American Economic Review. – 1955. – № 45. – P. 1-28.; Yandle, B. The Environmental Kuznets Curve: A primer / B. Yandle, M. Vijayaraghavan, M. Bhattarai // Perc Research Study. – 2002. – № 2 (1). – P. 1 24.; Green growth / Knowledge Platform. Sustainable Development : – URL: <https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?menu=1447>; Smulders, S. Growth theory and «green growth» / S. Smulders, M. Toman, C. Withagen // Oxford Review of Economic Policy. – 2015. – № 30 (3). – P. 423-446.; Ministerial Declaration on Environment and Development for Asia and the Pacific, 2017 / Объединенные нации. Цифровая библиотека : [сайт]. – Текст : электронный. – URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3882499?ln=ru>; Green Growth / ESCAP : [сайт]. – Текст : электронный. – URL: <https://www.unescap.org/our-work/environment-development/sustainability-transitions/green-growth> (дата обращения: 16.01.2022).



1-rasm. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi¹⁸

Moliyaviy vositalar moliyaviy bozorlarda yashil investitsiyalar va barqaror iqtisodiy rivojlanish tashabbuslarini rag'batlantirishga qaratilgan moliyaviy aktivlar hamda moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqaradigan operatsiyalarni amalga oshiradi.



2-rasm. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmining moliyaviy manbalari¹⁹

Xalqaro ekspertlar tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga

¹⁸ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁹ Tadqiqot davomida o'rganilgan manabalarga tayanilgan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

erishish uchun qariyb 30 trln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar sarflanishi bashorat qilingan.

“Yashil kreditlar”ni jalb qilish va moliya bozorini tartibga solishda ESG tamoyillarini joriy qilish miqyosida global moliyaning yangi ekotizimi, ya’ni mas’uliyatli va “Yashil” moliyalashtirish tizimi shakllanmoqda. Buni boshqacha qilib, “Yashil” moliyalashtirish ekotizimi, - deb, atash ham mumkin. Mazkur ekotizim ESG tarkibiga kiruvchi 3 ta omilni, ya’ni atrof-muhit, ijtimoiy muammolar va korporativ boshqaruv bilan bog‘liq masalalarni o‘zaro yaxlit holda mujassamlashtirgan. “Yashil” moliyalashtirish ekotizimi atrof-muhit ifloslanishining oldini olish bilan bog‘liq loyihalarga mahalliy va xalqaro moliya bozorlaridan mablag‘larni jalb qilish orqali hal qilishga qaratilgan. «yashil» moliyalashtirish ekotizimi 3 ta toifani o‘z ichiga oladi (2-jadval). Birinchi toifaga kiradiganlar «yashil» moliyalashtirish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan ishtirokchilar hisoblanadi.

2-jadval

«Yashil» moliyalashtirish ekotizimi²⁰


Ekotizim tuzilmasi	Ekotizim tuzilmasi tarkibiy qismlari
«yashil» moliyalashtirish ekotizimi ishtirokchilari	moliya bozorlarini tartibga soluvchi davlat organlari;
	tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq mas’ul idoralar;
	qimmatli qog‘ozlar emitentlari va moliyaviy mablag‘larni oluvchilar;
	investorlar, aktivlarni boshqaruvchilar, moliyalashtiruvchi tashkilotlar va moliya bozorlarining boshqa ishtirokchilari;
	konsalting kompaniyalari, reyting agentliklari, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va sertifikat taqdim etuvchi agentliklar;
	ilmiy tadqiqot muassasalari, ekspert tashkilotlari va boshqalar.
«yashil» moliyalashtirishda foydalaniladigan moliyaviy vositalar	«yashil» obligatsiyalar (suveren va korporativ);
	«yashil» kreditlar;
	«yashil» budjet mablag‘lari;
	«yashil» sug‘urta;
	«yashil» sukuk (suveren va korporativ); boshqa «yashil» moliyaviy vositalar.
«yashil» moliyalashtirishga oid ma’lumotlar bazasi	qarz oluvchining kreditga layoqatliligi reytingi, indekslar, ko‘rsatkichlar, metodologiyalar, tadqiqotlar, tahliliy ma’lumotlar, so‘rovnomalar;
	ma’lumotlar bazasi, reestrlar.

Ikkinchi toifaga «yashil» moliyalashtirishda foydalaniladigan moliyaviy vositalar, xususan, suveren va korporativ «yashil» obligatsiyalar, «yashil» kreditlar, “yashil” budjet mablag‘lari, «yashil» sug‘urta, suveren va korporativ “yashil” sukuk va boshqa “yashil” moliyaviy vositalar kiradi. Uchinchi toifaga esa, “yashil” moliyalashtirish vositalaridan foydalangan holda mablag‘lar jalb qilishni maqsad qilgan iqtisodiyot subyektlariga oid ma’lumotlar bazasi, ya’ni qarz

²⁰ Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

oluvchining kreditga layoqatliligi reytingi, indekslar, ko'rsatkichlar, metodologiyalar, tadqiqotlar, tahliliy ma'lumotlar, so'rovnomalar, ma'lumotlar bazasi va reestrlar kiradi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, «yashil» moliyalashtirish ekotizimi turli maqsad va yo'nalishdagi ishtirokchilar faoliyatini tartibga soladi hamda ularni birlashtiradi. «yashil» moliyalashtirish ekotizimini Masalan, Rossiya banki huzuridagi uzoq muddatli investitsiyalar bozori ekspertlar Kengashi mutaxassislari fikriga ko'ra, «yashil» moliyalashtirish ekotizimi qayd etish va muvofiqligini tasdiqlash nuqtai-nazaridan quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi²¹.

Dissertatsiyaning «**Iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil moliyalashtirish usullaridan foydalanish amaliyoti**» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kiritilgan yashil investitsiyalarning hozirgi kundagi amaliy taxlili, iqtisodiyot tarmoq va sohalarini davlat-xususiy sherikligi asosida «yashil» loyihalarni moliyalashtirish taxlili, iqtisodiyot tarmoq sohalaridan energetika tarmog'iga jalb qilingan investitsiyalar samaradorligining ekonometrik modeliga bag'ishlangan.



3-rasm. O'zbekistonda YaIM o'sishida iqtisodiyot tarmoqlari ulushining 2020-2024 yillarda o'zgarish tendensiyasi²²

2024 yilda YaIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 foizga., sanoat tarmog'i – 1,7 foizga., qurilish tarmog'i – 0,6 foizga va xizmat ko'rsatish tarmog'i – 3,3 foizga ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaIM 0,3 foizga ko'paydi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida

²¹ Концепция организационной в России методологической системы по развитию зелёных финансовых инструментов и проектов ответственного инвестирования. Москва, 2019. -с. 8-9. (-87 с.)

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, 2024 yil yanvar-dekabr.

yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 95,3 % ini tashkil etdi va 6,6 % ga o‘tdi (YaIM mutlaq o‘shishiga ta’siri 6,2 % ni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi va 2023 yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o‘tdi (YaIM mutlaq o‘shishiga ta’siri – 0,3 %).

“Yashil” obligatsiyalar va kreditlar, shuningdek, boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan “yashil” turdagi loyihalarni tasniflash tajriba tariqasida Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi orqali amalga oshirish bo‘yicha respublikamizda chet el investitsiyalarini, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag‘larini investitsiya loyihalari, avvalambor, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun faol jalb qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda, respublikamiz Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot Banki va Islom taraqqiyot banki, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari kabi nufuzli xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik davrlarida xalqaro loyihalarni amalga oshirish borasida yetarli darajada tajribaga ega bo‘lmoqda.

3-jadval

O‘zbekistonda 2020-2024 yillarda yashil moliyalashtirish dinamikasi²³, mlrd.so‘m.

Yil	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	AMMQ va TROF investitsiyalarning jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi, foizda
2020	210195,1	356,1	0,2
2021	239552,6	569,8	0,2
2022	266240,0	897,3	0,3
2023	356071,4	1056,6	0,3
2024	507490,2	1923,4	0,4


3-jadval ma’lumotlariga tayanib iqtisodiyot tarmoqlariga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni taxlil qiladigan bo‘lsak, 2020 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Lekin iqtisodiyotda yashil moliyalashtirish ya’ni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ko‘lami o‘shish tamoyiliga ega bo‘lsada ularning jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar salmog‘idagi ulushi 2020-2024 yillarda 0,2-0,4 foizni tashkil etadi xolos.

Glazgoda o‘tkazilgan Birlashgan millatlar tashkilotining iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi (BMT IO‘DK) tomonlar konferensiyasida (TK-26) O‘zbekiston hukumati 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri

²³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, 2024 yil yanvar-dekabr.

keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yildagi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirish bo'yicha zalvorli maqsadini e'lon qildi. Bu rejani amalga oshirish maqsadida keyingi besh yil davomida bir qancha strategik hujjat va qarorlar qabul qilib, hayotga tatbiq etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son Qarorida davlat moliyaviy ko'magidan (subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari, kafolatlar va boshqalardan) foydalangan barcha tadbirkorlik subektlarining investitsiyaviy xarajatlari Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi asosida tasniflash hamda ular tomonidan mas'ul respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga ma'lumotlar taqdim etish ko'zda tutilgan. Mazkur ma'lumotlar davlat va xususiy sektorlarida ekologik samaradorlikni o'lchash va tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi hamda ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, ekologik siyosatlarining samaradorligini oshirishga va istiqbolida iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.



4-rasm. XTTB va XTA tomonidan 2021- 2024- yillar mobaynida sohalar doirasida ajratilgan kredit hajmlarining ulushi²⁴. (mln. AQSh dollarida)

O'zbekistonda DXSh munosabatlaridan foydalanish boshlanganiga ko'p muddat bo'lmaganligiga qaramasdan, hozirga qadar mamlakatimizda bu sohada ko'plab loyihalar amalga oshirildi va amalga oshirilishi davom etmoqda. Bu borada statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, yurtimizda 2019-2022 yillar davomida umumiy qiymati 7,4 mlrd. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan jami 477 ta DXSh asosidagi loyihalar bo'yicha ishlar olib borilgan (4-jadval).


²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, 2024 yil yanvar-dekabr.

4-jadval

O'zbekistonda DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar soni va qiymati²⁵

Yillar	Loyihalari soni	Jamiga nisbatan ulushi, %	Loyihalarning umumiy qiymati, mlrd. AQSh dollar	Jamiga nisbatan ulushi, %
2019	31	4,0	0,1	0,4
2020	51	6,5	0,2	0,9
2021	183	23,5	2,6	11,5
2022	212	27,2	4,5	19,8
2023	174	22,3	6,4	28,2
2024	129	16,5	8,9	39,2
JAMI	780	100	22,7	100

Jumladan, 2019 yilda 31 ta DXSh loyihasi bo'yicha ishlar olib borilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 100 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan. Bu borada 2020 yilda ko'rsatkichar deyarli ikki barobarga oshib, umumiy qiymati 200 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 51 ta DXSh loyihasi amalga oshirilgan. O'sish sur'atlari yanada jadallashgan holda 2021 yilda 183 ta DXSh loyihasi yuzasidan ishlar amalga oshirilgan. 2021 yilda DXSh asosidagi loyihalarning umumiy qiymati 2,6 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan. 2022 yilda umumiy qiymati 4,5 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 212 ta DXSh asosidagi loyihalar bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. 2023 yilda umumiy qiymati 6,4 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 174 ta DXSh asosidagi loyihalar bo'yicha ishlar amalga oshirilgan.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2019-2024 yillarda sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining eskirish darajasi (yil oxiriga asosiy vositalar jami qiymatiga nisbatan foizda)²⁶

²⁵ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

²⁶ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

5-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublika sanoat tarmoqlarida asosiy vositalarning eskirish darajasi yuqori bo'lgan. Xususan, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoat tarmog'ida asosiy vositalarning eskirish darajasi 2019 yilda 40,1 foizni, 2020, 2021, 2022 va 2023 yillarda mos ravishda 31,5, 30,2, 38,2 va 37,4 foizni, 2024 yilda esa, mazkur ko'rsatkich 36,8 foizni tashkil etib 2019 yilga nisbatan pasayish tamoyiliga ega bo'lgan. Energetika sanoat tarmog'idagi asosiy vositalar eskirish darajasining yuqoriligi mazkur sanoat tarmog'ida texnik yo'qotishlarning kattaligi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mamlakatning 2022 yilgi yoqilg'i-energetika balansida iste'mol qilingan elektr energiyasining 30,8 foizi aholi hissasiga to'g'ri kelishi hamda aholining qariyb 98 foizi foydalanilgan 1 kVt soat elektr energiyasi uchun oxirgi besh yil mobaynida 295 so'mdan narx to'lashi energetika sohasidagi korxonalar asosiy vositalarini modernizatsiyalash uchun investitsiyalar kiritishga to'laqonli imkon bermadi. Shu sababli mamlakatimizda yoqilg'i-energetika sanoati korxonalari asosiy vositalari va infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda 2010 yilda jami 50807,7 mln. kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilingan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektr energiyasi iste'moliga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, unda sanoatning ulushi 38,8 foiz, qishloq xo'jaligi sohasining ulushi 30,4 foiz, aholining ulushi 9,1 foiz, tijorat korxonalari va davlat idoralarining ulushi 3,7 foiz, transport sohasining ulushi 2,5 foiz va yakunda qurilish sohasining ulushi 0,3 foizni tashkil etgan.

5-jadval

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektr energiyasi iste'moli (mln. kVt/soat)²⁷

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Jami ²⁸	50807,7	56368,6	69021,1	74951,7	76543,3	78267,3	78267,3
Sanoat	18117,7	20811,4	18284,3	18683,3	21324,1	22873,2	23215,6
Qurilish	199,0	341,3	1448,0	1566,0	1072,3	1152,5	1152,5
Qishloq xo'jaligi	8607,4	9031,2	9202,4	9644,5	6870,3	6723,0	6723,0
Transport	1207,9	1166,3	1058,0	1122,3	1401,1	1362,4	1362,4
Tijorat korxonalari va davlat idoralari	2243,3	3451,6	5238,9	7483,9	7175,3	6953,1	6953,1
Aholi	11449,3	12548,7	15549,5	15461,8	17470,8	18569,7	18569,7
Boshqa sohalar	-	-	1170,0	1670,0	1265,0	1342,6	1342,6

Mamlakatimizda elektr energiyasi iste'moli borasidagi xuddi shu holatni 2015 yil bilan taqqoslaydigan bo'lsak, bu borada biz yangi tendensiyalar paydo bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Xususan, 2015 yilda respublikamizda jami 56368,6 mln. kVt/soat, 2010 yilga qaraganda esa, 5560,9 mln. kVt/soat elektr energiyasi ko'p iste'mol qilingan. 2015 yilda iste'mol qilingan elektr

²⁷ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

²⁸ ishlab chiqarishdagi, taqsimlashdagi va elektr energiyasining qayta o'zgarishdagi sarfni qo'shgan holda.

energiyasining 36,9 foizi sanoat, 22,3 foizi aholi, 16,0 foizi qishloq xo‘jaligi, 6,1 foizi tijorat korxonalar va davlat idoralari, 2,0 foizi transport sohasi va 0,6 foizi qurilish sohasi hissasiga to‘g‘ri kelgan. Mamlakatimizda 2024 yilda iste‘mol qilingan elektr energiyasi 78267,3 mln. kVt/soatni tashkil etgan. Agar mazkur ko‘rsatkichni 2010 yil bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, elektr energiyasi iste‘moli qariyb 35 foizga yoki 27459,6 mln. kVt/soatga oshgan. Bunda sanoatning ulushi 29,6 foiz, aholining ulushi 23,7 foiz, tijorat korxonalar va davlat idoralarning ulushi 8,8 foiz, qishloq xo‘jaligi sohasining ulushi 8,5 foiz, transport sohasining ulushi 1,7 foiz va yakunda qurilish sohasining ulushi 1,4 foizni tashkil etan. E‘tiborimizni energetika sohasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda ARDL modelidan foydalanishga qaratamiz. ARDL modelidan foydalanish statsionar bo‘lmagan o‘zgaruvchilar bilan ishlashda va kointegratsiya tahlillarini o‘tkazishda yuqori ahamiyatli hisoblanadi²⁹. An‘anaviy regressiya modellari statsionar bo‘lmagan ma’lu-motlar uchun mos kelmaydi. Mazkur jarayonda ishtirok etadigan o‘zgaruvchilar barqaror munosabatlarga ega, - deb, taxmin qilinadi.

$$Y_t = \beta_{01} + \sum_1^l \beta_{1i} X_{1t-1} + \sum_0^m \beta_{2i} X_{2t-1} + \sum_1^l \beta_{3i} X_{3t-1} \quad (1)$$

ARDL modeli uchun omil va natijaviy belgining laglarini belgilashimiz uchun «varsoc»dan foydalanamiz.

6-jadval

ARDL (1,0,0,0) metodi bo‘yicha statistik baholash³⁰

ARDL(1,0,0,0) regression						
Sample:	2011 - 2023	Number of obs	=	2402		
		R-squared	=	0.6725		
		Adj R-squared	=	0.5088		
Log likelihood	= 3.6540977	Root MSE	=	0.2329		
D.lnGDP	Coef.	Std.Err.	t	P>t	[95%Conf.	Interval]
ADJ						
lnGDP						
L1.	-0.290	0.200	-1.450	0.006	-0.752	0.173
LR						
lnprivate	1.07	0.345	2.320	0.058	2.635	11.404
lninvestment	1.04	0.413	4.220	0.003	0.789	2.695
lnp_debt	1.05	0.798	1.210	0.063	0.312	1.979
SR						
_cons	-3.842	11.291	-0.340	0.742	-29.880	22.195

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish yuzasidan qaror qabul qilish maqsadida model qiymatlari bir qancha testlar orqali tekshiriladi. Test natijalariga asoslangan holda qaror qabul qilinadi. Agar modelning ishonchligi tasdiqlansa, u holda quyidagi tenglama hosil qilinadi.

²⁹ Ghouse, Ghulam, Saud Ahmed Khan, and Atiq Ur Rehman. "ARDL model as a remedy for spurious regression: problems, performance and prospectus." (2018): 1-29.

³⁰ Iqtisodiy-matematik tahlil natijalari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Modelni baholash testlari³¹

Test	Qiymatlar	Ehtimollik
Jarque-Bera normality test	2.3654	0.54
Breusch-Godfrey serial correlation test	3.8563	0.33
Ramsey RESET test	2.7410	0.42
Heteroscedasticity test: Breusch-Pagan Godfrey	1.9562	0.87
Cusum plot	Doimiy	
Cusum of squares plot	Doimiy	

Gaus Markov shartlari to'liq bajarilishidan tashqari, modelning sifatini ifodalovchi Ramsey Reset testi, Akayke va Bayesian qiymatlari modelni to'liqroq tahlilini ko'rsatib beradi. Model qoldiqlari va mos qiymatlari bog'liqligini ko'rsatuvchi Breuch Pagan testi bo'yicha bosh gipoteza qabul qilinib, muqobil gipoteza rad qilinmoqda. Ehtimollik 0.87 bo'lishi mazkur qaror uchun asos bo'ladi. ARDL (1,0,0,0) modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$D(\ln GDP) = -0.29(1.07 \ln private + 1.04 \ln investment + 1.05 \ln p_debt) - 3.84$$

ARDLning boshqa usullardan farqi shundaki, ushbu usul orqali qisqa va uzoq muddatli tahlillar amalga oshiriladi. ARDL(1,0,0,0) modelning qo'llanilishi tanlangan omillarning joriy yilda natijaviy belgiga ta'sirini ifodalaydi. Xalqaro energiya tashkiloti ma'lumotlaridan foydalangan holda energetika sohasidagi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish maqsadida loyihalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi modelda xususiy sektor mablag'lari ustuvorlikka ega ekanligi tasdiqlandi. Model natijalariga asoslanadigan bo'lsak, energetika infratuzilmasi bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda xususiy kapitaldan foydalanish YaIMni qo'shimcha 1.07 foizga o'sishini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi «**O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirish yo'nalishlari**» deb nomlanib, milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning xorij tajribasi va uni qo'llash, iqtisodiyot tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning energetika sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari amalga oshirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda birinchi navbatda, ularning shaharlarida ekologik vaziyat keskin yomonlasha boshladi va bu quyidagi omillarning natijasi sifatida e'tirof etila boshladi: iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlanayotgan rivojlanishning sanoat yo'liga o'tgan, Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong hamda asta-sekin rivojlanayotgan Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi qashshoqlik muammosidir. Mazkur muammo milliy davlat resurslari va xalqaro moliya institutlari hisobidan tegishli maqsadlar uchun katta moliyaviy resurslarni ajratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ammo, ba'zi sohalarda muvaffaqiyatga erishilganiga

³¹ Iqtisodiy-matematik tahlil natijalari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

qaramay ayrim paytlari mamlakatlarda vaziyat keskin tus ola boshladi³².

Ta'kidlash o'rinliki, faqatgina ekologik omillardan bo'lgan – havoning ifloslanishi sayyoramizda har yili to'rt yarim million odamning bevaqt vafot etishiga va bu o'limlar soni jahon iqtisodiyotiga qariyb 2,7 milliard yevro miqdorida zarar yetkazmoqda.³³

8-jadval

Dunyoning eng yirik iqtisodiyotlarining energiya zichligi (mega j/\$)³⁴

Mamlakatlar	2005	2007	2009	2010	2015	2025	2035	2005 yildan 2015 yilgacha	2015 yildan 2025 yilgacha	2025 yildan 2035 yilgacha
Kanada	14.63	14.27	13.47	11.95	11.03	10.18	9.43	132.64	108.35	107.95
Janubiy Koreya	13.43	13.27	10.31	8.55	7.76	7.14	9.28	173.07	108.68	76.94
AQSH	10.06	9.92	8.49	7.58	6.74	5.97	5.37	149.26	112.90	111.17
Avstraliya va Yangi Zelandiya	9.61	9.59	8.80	7.85	6.97	6.20	5.50	137.88	112.42	112.73
Xitoy	7.47	8.14	6.58	5.48	4.65	3.99	3.46	160.65	116.54	115.32
Rossiya	17.06	16.64	12.97	11.32	10.08	9.01	7.89	169.25	111.88	114.20
Yevro Ittifoqi	7.73	7.68	6.75	6.00	5.26	4.70	4.20	146.96	111.91	111.90
Yaponiya	7.12	7.09	6.41	6.01	5.75	5.53	5.32	123.83	103.98	103.95
Meksika	7.03	6.85	6.78	6.16	5.58	4.97	4.44	125.99	112.27	111.94
Braziliya	6.66	6.64	6.51	5.59	5.10	4.68	6.09	130.59	108.97	76.85
Hindiston	4.42	4.36	3.33	2.94	2.57	2.24	1.92	171.98	114.73	116.67

Shuningdek, iqtisodiyotdagi iqlim o'zgarishlari xavfini kamaytirish uchun qo'shimcha xarajatlar zarurligi munosabati bilan sanoatning, asosan, uglevodorodlarni qazib olish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan ekologik maqsadlarga sarflanadigan xarajatlarni qisqartirish yo'nalishini himoya qilgan siyosatchilar orasida qarama-qarshiliklarni sezilarli darajada oshirdi. Ular iqtisodiy faoliyatning deyarli har bir turida ifloslantiruvchi kimyoviy moddalar, issiqxona gazlari va chiqindilarsiz amalga oshirib bo'lmasligini ta'kidlab, ularni kamaytirish bilan bog'liq har qanday moddiy, moliyaviy yoki soliqlar, jarimalar pirovardida ish o'rinlarining qisqarishiga hamda aholi turmush farovonlik darajasining sifat jihatdan pasayishiga olib kelmoqda.

“Yashil” moliyaning faol o'sishiga to'sqinlik qiladigan asosiy muammolarni ikki guruhni ajratib ko'rsatish mumkin³⁵. Birinchi guruhga “yashil” moliyaga xos bo'lgan o'ziga xos muammolar, ikkinchi guruhga esa uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishidagi standart talab muammolarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Muammolarning birinchi guruhiga quyidagilar kiradi: “yashil” moliya bo'yicha konseptual apparatning "loyqa" chegaralari, “yashil” moliyaning rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiruvchi institutsional omillar, “yashil” moliyaning kredit va bozor risklarini baholashning etarli darajada ishlab chiqilmagan


³² «Зелёные финансы» в мире и России: монография / Б.Б. Рубцов, И.А. Гусева, А.И. Ильинский, И.В. Лукашенко, С.А. Панова, А.Ф. Садретдинова, С.М. Алыкова; под ред. Б.Б. Рубцова. – М.: Русайнс, 2021. – 170 с.

³³ <https://www.rg.ru/2020/02/13/eksperty-nazvali-chislo-smertej-v-mire-iz-za-zagriazneniia-vozduha.html>.

³⁴ Евдокимова Ю.В. Специфика становления «зеленых» финансов в России и зарубежных странах // Вестник Екатеринбургского института. – 2019. – № 3 (47). – С. 16–20.

³⁵ OECD policy guidance for investment in clean energy infrastructure [Электронный ресурс] // The Organisation for Economic Co operation and Development (OECD). – URL: <https://www.oecd.org/daf/inv/investment-policy/CleanEnergyInfrastructure.pdf>.

metodologiyasi, “yashil” investitsiyalarning tashqi ta’irini baholash, axborotning notekis taqsimlanishi. Ikkinchi guruh uzoq muddatli investitsiyalarning an’anaviy risklarini o’z ichiga oladigan “yashil” investitsiyalarga xosdir³⁶.



6-rasm. Dunyo bo‘yicha har yili ishlab chiqariladigan yashil obligatsiyalar, mlrd. AQSh. dollarida³⁷

6-rasmda 2016-2023 yillarda dunyo bo‘yicha har yili ishlab chiqariladigan yashil obligatsiyalar keltirilgan bo‘lib, unda mos ravishda o‘shirish tendensiyasi kuzatilgan. 2016 yilda dunyo bo‘yicha har yili ishlab chiqariladigan yashil obligatsiyalar 85,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa 2023 yilga kelib 587 mlrd. AQSH dollariga o‘sgan. 2022 yilda 509,6 mlrd. AQSH dollarga pasaygan bo‘lsada 2023 yilda 587 mlrd. AQSH dollariga yetgan. Buni e’tirof etish kerakki, yashil bozor paydo bo‘lganidan beri shunga o‘xshash davrlar uchun mutlaqo rekord darajadir³⁸. Aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlarning (yashil ABS) ulushi 2021 yilning birinchi yarmida 8 foizni tashkil etgan, bu esa 2020 yilning birinchi yarmiga nisbatan ikki baravar ko‘pdir.

9-jadval

Yashil iqtisodiyotning zamonaviy shakllarini rivojlantirish yo‘nalishlari³⁹

Yashil iqtisodiyot				
Kam uglerodli iqtisodiyot	Bioiqtisodiyot	Iqtisodiyotga asoslangan yashil o‘shirish	Doiraviy iqtisodiyot	Moviy iqtisodiyot
Energija resurslaridan samarali foydalanish				
Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish				
Emissiyalarni minimallashtirish tomonidan issiqxona gazlaridan samaraliroq foydalanish, energiya resurslari va qayta tiklanadigan energiya manbalari	Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, fermer xo‘jaliklari va biotexnologiyalar	Atrof-muhit barqarorligini ta’minlash va aholi turmush farovonligini oshirish hamda mahsulotlarning sifatini oshirish, uning hayotiylik siklini uzaytirish		
Chiqindilardan samarali foydalanish				

³⁶ LEED, Leadership in Energy and Environmental Design – программа сертификации экологически чистого строительства, ис пользующаяся во всём мире.

³⁷ https://www.climatebonds.net/files/reports/cbi_susdebtsum_h12021_02b.pdf.

³⁸ https://www.climatebonds.net/files/reports/cbi_susdebtsum_h12021_02b.pdf.

³⁹ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy tizimlarning ekologik tavsifdagi modellarining har biri o'ziga xos surg'urtaga ega va ekologik barqarorlikning muayyan jihatlariga qaratilgan. Ekologik barqaror rivojlanish inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini hisobga oladigan va tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha faol choralar ko'radigan yanada barqaror va ekologik ma'suliyatni o'z zimmasiga oladigan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan.

10-jadval


Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari va xatarlari⁴⁰

Imkoniyatlar	Samaradorlik
Iqtisodiy o'sish	Yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni qo'llash va yangi ishlab chiqarishni rivojlantirish
Issiqxona gazlari	Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarga qarshi kurashda yordam berish
Kamaytirish resurslardan foydalanish	Atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni kamaytirish va resurslarni tejash
Yangi bozorlar va investitsiyalar	Ekologik toza tovar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratish, innovatsion loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish
Moliyaviy xavflar	Har doim ham tezda to'lanmaydigan muhim sarmoya
Texnologik cheklovlar	Ba'zi texnologiya va innovatsiyalar keng ko'lamli amalga oshirish uchun tayyor bo'lmasligi mumkin.
Ijtimoiy oqibatlar	Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatish va ulardagi bandlikni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.
Teng bo'lmagan raqobat	Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning texnologiyaga turlicha kirishi tufayli, qat'iy tartibga solishga zaruriyat nuqtai-nazaridan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.
Resursga bog'liqlik	Ba'zi hollarda noyob yoki cheklangan resurslar bilan yangi muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan modellarning ba'zilari aylanma iqtisodiyot, past uglerodli iqtisodiyot va yashil o'sish iqtisodiyoti allaqachon turli mamlakatlarda jumladan, Gollandiya, Finlyandiya, Shvesiya, Fransiya, Yaponiya, Xitoyda keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish" 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son Farmonida "Yashil" texnologiyalar, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni o'z ichiga olgan iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun resurslar bilan ta'minlash va moliyalashtirishga, shu jumladan, investitsiyalar jalb qilishga ko'maklashishga qaratilgan. Natijada shamol energiyasidan foydalanish bilan ishlab chiqarilgan energiya miqdori 2,5 milliard kVt/s ga yetkazilib, yangi energiya samaradorligiga ega texnologiyalar, qurilish standartlari va uskunalari joriy qilinadi. Shuningdek, yangi binolar va infratuzilmalarda energiya samaradorligini oshirish uchun zamonaviy tizimlar va materiallar qo'llanilishi oqibatida umumiy energiya sarfi 12-15 foizga kamayishiga erishiladi.

⁴⁰ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



7-r asm: "Yashil" o‘shish va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq strategiyalarni milliy va tarmoqlar miqyosida rejalashtirish⁴¹

Dunyo miqyosida ko‘plab mamlakat hukumatlari tomonidan energiya samaradorligini oshirish borasida olib borayotgan sayi-harakatlarga qaramasdan, 2050 yilga borib iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Parij kelishuvida ko‘zda tutilgan natijaga erishish murakkab vazifadagi ko‘rinmoqda.

Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, AQSh va Kanada kabi mamlakatlar yaqin yillar ichida milliy elektr tarmoqlarini modernizatsiyalash va kengaytirish, energetika tizimini raqamlashtirish, elektr tarmoqlari tizimida aqlli tarmoqlar va aqlli o‘zaro bog‘langan tizim texnologiyalarini joriy qilish bilan bog‘liq loyihalarga 1 trln. 378 mlrd. AQSh dollaridan ortiq mablag‘larni investitsiya qilishni maqsad qilishgan. IRENA agentligining global isishni 1,5 °C ga pasaytirishga qaratilgan strategiyasiga ko‘ra, elektrlashtirish va energiya tejamkorligiga erishishda qayta tiklanadigan energiya, vodorod va barqaror biomassaga tayanish energetik o‘tish islohotlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda.

⁴¹ Manabalardan foydalangan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi hamda taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dunyo miqyosida cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni tejab ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi hamda zaharlanishining oldini olish, shuningdek, tabiiy biologik jarayonlar buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida global miqyosda «yashil» iqtisodiyotni shakllantirishda «yashil» loyihalarni moliyalashtirish uchun turli manbalar va vositalardan foydalanish zarurati yuzaga keldi.

2. «Yashil» loyihalar taksonomiyasi barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadigan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar toifalari va aktivlar tasniflanishini tizimli aniqlashga xizmat qiladi. Ko‘p hollarda milliy taksonomiyalar ma‘lum bir mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlarini va barqaror rivojlanish yo‘lidagi harakatlarining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

3. Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish yirik hajmdagi mablag‘larni talab qilganligi bois, ko‘pchilik mamlakatlar hukumatlari iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va «yashil» iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda turli moliyaviy vositalar, xususan, uglerod solig‘i va kvotalar bilan savdo qilish mexanizmidan foydalanmoqda. Zararli chiqindilar uchun soliq solish va kvotalarga narx belgilash budjetga qo‘shimcha daromad keltiradi. Mazkur vositalarni joriy qilish natijasida budjetga kelib tushadigan mablag‘lardan iqlim o‘zgarishlarining oldini olishga qaratilgan texnologiyalarni yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun energiya tariflarining oshgan qismini qoplash, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

4. Global miqyosda atrof-muhitni ifloslantirishda qazib olinadigan yoqilg‘ilarning ta‘siri tobora ortib bormoqda. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ko‘plab mamlakatlarda neft, gaz va ko‘mir kabi qazib olinadigan yoqilg‘ilar, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlab chiqaruvchilar yoki iste‘molchilarga davlat tomonidan yirik hajmdagi subsidiyalar taqdim etib kelinmoqda. Masalan, 2022 yilda qazib olinadigan yoqilg‘ilarga taqdim etilgan global miqyosdagi subsidiyalar hajmi 1,1 trln. AQSh dollaridan oshgan. Dunyo bo‘yicha qazib olinadigan yoqilg‘ilar va elektr energiyasi uchun ajratilgan subsidiyalar 2022 yilda 2021 yilga qaraganda qariyb 2 barobarga, 2020 yilga qaraganda esa 4 barobarga oshganligini qayd etish mumkin.

5. Boshqa davlatlardan farqli o‘laroq, mamlakatimiz energiya ta‘minotida tabiiy gaz mutlaq ustunlik qiladi. So‘nggi yillarda respublikada umumiy energiya va elektr ta‘minotining qariyb 85 foizi tabiiy gaz hisobiga ta‘minlanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashlariga ko‘ra, mamlakatda tabiiy gazdan hozirgi sur‘atlarda foydalaniladigan bo‘lsa, mamlakatning gaz zaxiralari 20 yildan kamroq vaqt ichida tugashi mumkin. Shuning uchun, milliy iqtisodiyotning tabiiy gazga bog‘liqligini kamaytirish maqsadida mamlakatda qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish, energiyadan samarali foydalanish va energiyani tejash

yuzasidan maqsadli, davomli va tizimli chora tadbirlarni amalga oshirish zarur.

6. O'zbekiston Respublikasining 2022 yilgi yoqilg'i-energetika balansida tabiiy gaz hisobiga shakllantirilgan yoqilg'i va energiyaning umumiy miqdori 21,4 mln. tonna neft ekvivalentiga teng bo'lgan. Tabiiy gaz iste'molida aholining ulushi 44,0 foizni, sanoatning ulushi 24,7 foizni, transport sohasining ulushi 19,3 foizni, noenergetika sohasining ulushi 2,7 foizni va boshqa tarmoqlarning ulushi 9,3 foizni tashkil etgan. Mamlakatimizda 2022 yildagi yo'qotishlar miqdori 4,19 mln. tonna neft ekvivalentiga teng bo'lib, bu birlamchi taklif etilayotgan yoqilg'i va energiyaning 8,5 foizini tashkil etgan. Shuningdek, elektr energiyasini iste'molchilarga yetkazib berishdagi yo'qotishlar 36,7 foiz yoki 290,6 ming tonna neft ekvivalentiga teng bo'lgan.

7. Tadqiqot natijalari mamlakatimiz sanoat tarmoqlarida asosiy vositalarning eskirish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati tarmog'ida asosiy vositalarning eskirish darajasi 2019 yilda 40,1 foizni, 2020 va 2021 yillarda mos ravishda 31,5 va 30,2 foizni, 2022 yilda esa, mazkur ko'rsatkich 38,2 foizni tashkil etgan. Energetika sanoat tarmog'ida asosiy vositalarning eskirish darajasi yuqori bo'lganligi sababli mazkur sanoat tarmog'ida katta texnik yo'qotishlar kuzatilmoqda.

8. «Yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash yirik hajmdagi moliyaviy resurslarni talab etadi. Bunda barcha xarajatlarni davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirishning imkoni yo'q. Mazkur masalaga yechim sifatida kam uglerodli texnologiyalardan foydalanishga xususiy sektorni faol jalb qilish va xususiy sektorning mazkur yo'nalishdagi faoliyatini rag'batlantirish lozim. Shu sababli, mamlakatimizda «yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida maxsus jamg'armani tashkil etish maqsadga muvofiq. Jamg'armaga ichki va tashqi manbalar, xususan, davlat budjeti mablag'lari, xususiy biznes vakillari, institutsional investorlar, xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlar mablag'larini jalb qilish mumkin. Jamg'arma mablag'larini Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasida belgilangan yo'nalishlar doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishga safarbar qilinishi respublikamizning «yashil» o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

9. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar budjetida taqchilik mavjudligi, davlat qarzlarning yuqori darajada ekanligi, surunkali ravishda mablag'lar yetishmovchiligi kuzatilishi yirik infratuzilma loyihalarini markazlashgan manbalar hisobiga amalga oshirish imkonini cheklagan. Xalqaro tajribada infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning muqobil usuli sifatida DXSh munosabatlari muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan vosita hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda «yashil» infratuzilma va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarni DXSh asosida moliyalashtirilishi milliy iqtisodiyotga uzoq muddatli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. zararli

10. O'zbekistonda quyidagi faoliyat turlari va yo'nalishlarda ESGga oid talablarni qo'llash shart qilib belgilanishi zarur: dastlabki bosqichda yirik va o'rta

biznes subyektlari, keyingi bosqichda barcha kichik biznes subyektlari ESGga oid hisobot topshirishi; o'rta va yirik investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asoslanishi (biznes-rejasi)da ESG omillar aks etishi; tijorat banklari tomonidan o'rta va yirik investitsiya loyihalariga kreditlar ajratishda loyihalarning ESG standartlariga mos kelishi; tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari tomonidan investitsiya portfelini shakllantirish talablariga ESG tamoyillarni kiritish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2026.31.01.1.42.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХОЛИКОВ САРВАР ХАЙИТБАЕВИЧ

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ
ЗА СЧЕТ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ**

08.00.07 - «Финансы, денежное обращение и кредит»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Город Ташкент – 2026 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/Iqt4156.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.tkti.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Асатуллаев Хуршид Сунатуллаевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Жумаев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор
Умурзаков Жамолиддин Шербекович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В.Плеханова

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 года в ___ часов на заседании научного совета DSc.03/2026.31.01.I.42.02 по присуждению учёных степеней при Ташкентском химико-технологическом институте. Адрес: 100011, г. Ташкент, улица Самарканд дарвоза, дом 60. Тел.: (71) 244-79-34; e-mail: info@tkti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института (зарегистрирована под ## ____). Адрес: 100011, г. Ташкент, ул. Самарканд дарвоза, 60, тел.: (71) 244-79-34, факс: (71) 244-79-34; e-mail: info@tkti.uz.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки No ____ от «___» _____ 2026 года).

Д.Н. Хусанов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

А.Ж. Хужамуродов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней,
доктор философии по
экономическим наукам, доцент

Ш.А. Хусаинов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Системы возобновляемой энергии, расположенные в Мировом океане или поддерживаемые ими, будут вносить значительный вклад в переход к зеленой энергии в ближайшие десятилетия. Прогнозируется, что влияние морского ветра и его сектора возобновляемой энергетики увеличится на 31 процент, глобальная добавленная стоимость увеличится с 38 миллионов долларов США в 2000 году до 5 миллиардов долларов США в 2020 году⁴², а глобальный рынок оффшорного ветра оценивается более чем в 39,6 миллиарда долларов США в 2024 году и превысит 146 миллиардов долларов США к 2031 году⁴³. Страны всего мира обязуются внедрять оффшорные ветроэнергетические системы, которые к 2050 году обеспечат электроэнергией 1,5 миллиарда домов в год⁴⁴. По этой причине энергетический кризис в мировой экономике, геополитическая нестабильность, разрушение реальной окружающей среды и систематическое сокращение природных ресурсов в последние годы оказывают значительное влияние на темпы глобального экономического развития. В свою очередь, особое внимание уделяется совершенствованию механизмов финансирования эффективности экономики стран путем финансирования зеленой экономики.

В мировой практике такие международные организации, как Всемирный банк, Международный валютный фонд, Программы развития ООН, считающиеся авторитетными финансовыми учреждениями, уделяют особое внимание научным работам, направленным на стимулирование потребностей стран в зеленых инвестициях, расширение ресурсной базы зеленых инвестиций, увеличение объема зеленых инвестиций в результате создания источников зеленого финансирования и, таким образом, совершенствование методических рекомендаций по развитию. Данные исследования разработаны авторитетными научно-исследовательскими центрами и на основе требований, установленных международными стандартами, в перспективе позволяют государствам формировать источники зеленых инвестиций при переходе к зеленой экономике и совершенствовать механизмы ее финансирования. Однако проблемы, связанные с теоретическими аспектами механизма зеленого финансирования в обеспечении финансовой устойчивости регионов путем развития бережливой зеленой экономики в будущем, методологией анализа и оценки источников зеленого финансирования, производством продукции, основанной на энергосбережении в экономике, и созданием условий среды, не влияющих на экологию региона, инвестиционной политикой, направленной на обеспечение устойчивости зеленой экономики, методами, используемыми при анализе эффективности зеленого финансирования, и путями совершенствования механизма оценки, все еще не утратили своей актуальности и относятся к

⁴² OECD, The Ocean Economy to 2050.

⁴³ www.verifiedmarketresearch.com/product/global-offshore-wind-market-size-and-forecast/.

⁴⁴ www.wri.org/insights/ocean-based-climate-change-solutions.

числу вопросов, ожидающих своего решения.

На новом этапе реформ в Узбекистане особое внимание уделяется вопросам «перехода к применению «зеленых» технологий в отраслях экономики, в частности, ресурсосберегающих, безотходных производств, технологий переработки отходов и безопасных химических веществ, а также изучения возможностей использования технологий возобновляемой энергии и их внедрения в практику»⁴⁵ и «широкого внедрения принципов зеленой экономики, устойчивого финансирования проектов, направленных на адаптацию экономики к изменению климата»⁴⁶. Однако, несмотря на то, что в результате реформ, проводимых в нашей стране по формированию зеленой экономики, в последние годы были достигнуты положительные результаты, вопрос повышения эффективности экономики остается одной из самых актуальных проблем из-за процесса доступа различных уровней источников к эффективному использованию существующих зеленых инвестиционных проектов, проектов, внедряемых в отрасли и сферы экономики, проблем в финансировании. Поэтому задачи активного привлечения зеленых инвестиций в отрасли и сферы экономики, а также формирования источников новых зеленых инвестиционных проектов и создания цепочки добавленной стоимости путем широкого использования возможностей зеленых технологий в повышении эффективности экономики стали одной из самых актуальных проблем на сегодняшний день.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года «О Государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год заботы об окружающей среде и «зелёной экономики»», от 30 мая 2025 года «О мерах по последовательному продолжению реформ в рамках общенационального проекта «Яшил макон» и в системе управления лесами, расширению зелёных территорий», от 11 сентября 2023 года No УП-158 «О стратегии «Узбекистан — 2030»», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 29 сентября 2023 года No 514 «О мерах по организации системы управления процессом перехода к «зелёной» экономике», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 декабря 2022 года No ПП-459 «О мерах по реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2023–2025 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года No ПП-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к «зелёной» экономике до 2030 года», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

⁴⁵ Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года No ПП-436 "О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к "зеленой" экономике до 2030 года." <https://lex.uz/ru/docs/6303230>

⁴⁶ Указ Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года No УП-16 "О Государственной программе по реализации Стратегии "Узбекистан - 2030" в Год охраны окружающей среды и "зеленой экономики."

